

**TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHDA
MEDIATEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI**

Kubeysinova D.T.¹, Turegaliyeva N.N.²

Annotatsiya:

Ushbu maqolada tinglab tushunish til ko'nikmalarining ahamiyati, ularni rivojlantirishda mediatexnologiyalarning roli, shuningdek, turli xil metod va mashqlar keltirilgan. Tinglab tushunish ko'nikmasi barcha til ko'nikmalarining asosini tashkil etadi, ayniqsa gapirish ko'nikmasini shakllantirishda muhimdir. Mediatexnologiyalar yordamida o'quvchilar real hayotdagi vaziyatlarni o'rganish, yangi so'zlar va iboralarni o'rganish, hamda madaniy kontekstni tushunish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ushbu maqolada, tinglab tushunishni rivojlantirish uchun tavsiyalar va samarali mashqlar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: tinglab tushunish, til ko'nikmalari, mediatexnologiyalar, o'qitish metodikasi, audio materiallar, interaktiv darslar, madaniy kontekst, raqamli resurslar, savol-javob mashqlari, ovoqli kitoblar.

doi: <https://doi.org/10.2024/1mef6z20>

Tinglab tushunish til ko'nikmalarining ichidagi eng ahamiyatli ko'nikmalarining biri sifatida tan olingan. Chunki, barcha til ko'nikmalarining shakllanishi tinglab tushunish bilan uzviy/uzluksiz bog'liqdir. Masalan, gapirish ko'nikmasini rivojlantirish avvalo tinglab tushunish orqali amalga oshiriladi. Hozirgi kunda tinglab tushunish ko'nikmasini har xil usullar yordamida, ayniqsa mediatexnologiyalar orqali rivojlantirish samarali usullardan biri.

Biz audiolardan, videolardan va qo'shiqlardan va boshqa maxsus ilovalardan foydalanib mazkur ko'nikmani rivojlantirishimiz mumkin. Va bu o'z navbatida til o'rganuvchilarga ham qiziqarli bo'ladi. Bundan tashqari, til o'rganishga mo'ljallangan saytlardagi topshiriqlarni bajarish ham yaxshi natija berishi mumkin. Shuni ta'kidlab o'tish joiz-ki, hozirgi XXI asr texnika texnologiya rivojlangan zamonda o'qituvchi oddiy qog'ozga chiqartirilgan mashqlardan foydalanishi eskirgan metod hisoblanadi va til o'rganuvchilarni o'zimizga jalb etishimiz uchun audio-vizual materiallardan foydalanishimiz va til o'rganuvchilarning ham qiziqishi va hohish-istaklarini inobatga olishimiz zarur.

1. Mediatexnologiyalar va ta'lim

Mediatexnologiyalar ta'lim jarayonini yanada interaktiv va qiziqarli qilish imkonini beradi. O'quvchilar audio va video materiallarni tinglab, real hayotdagi vaziyatlarni o'rganish orqali tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Misol uchun, filmlar va teleseriallar, musiqa, podkastlar va audiokitoblar yordamida o'quvchilar yangi so'zlar va iboralarni o'rganishadi, shu bilan birga, ularning talaffuzi va intonatsiyasini ham yaxshilaydilar.

2. Raqamli resurslar

Bugungi kunda internet orqali mavjud bo'lgan turli xil resurslar, o'quvchilarga tinglab tushunish ko'nikmalarini mustahkamlashda katta yordam beradi. O'quvchilar interaktiv darsliklar, onlayn kurslar va o'yinlar orqali o'z bilimlarini yanada kengaytirishlari mumkin. Masalan, YouTube platformasidagi ta'limiy videolar, tinglab tushunish ko'nikmasini oshirishda foydali materiallar sifatida xizmat qiladi.

3. Muloqot va qayta aloqa

¹ *Kubeysinova D.T., Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti*

² *Turegaliyeva N.N., Ajiniyoz nomidagi NDPI 1-bosqich doktoranti*

Mediatexnologiyalar o'quvchilarni o'zaro muloqotga jalb qiladi. Onlayn muhokama forumlari va guruhlar, o'quvchilarga o'z fikrlarini ifodalash, savollar berish va bir-birlari bilan tajriba almashish imkoniyatini taqdim etadi. Bu jarayon tinglab tushunish ko'nikmalarini yanada rivojlantirishga yordam beradi, chunki o'quvchilar boshqa odamlarning fikrlarini va nutqini tinglash orqali ko'proq bilim olishadi.

4. Madaniy kontekst

Tinglab tushunish ko'nikmalarini shakllantirishda madaniy kontekstni hisobga olish muhimdir. Mediatexnologiyalar yordamida o'quvchilar turli madaniyatlar bilan tanishishadi. Masalan, xorijiy tilni o'rganish jarayonida, o'quvchilar o'sha tilning madaniyati, an'analari va urf-odatlarini haqida ma'lumotga ega bo'lishadi. Bu esa, tinglab tushunish ko'nikmalarini yanada chuqurlashtiradi.

Chet tili o'qitish metodikasi tarixiga nazar tashlasak o'tgan asrning 60-yillariga kelib, tinglash nutq faoliyatining turi sifatida atroficha tadqiq etila boshlandi. Avvalari unga gapirishning uzviy qismi deb qarab kelingan edi. Chet tili darsida tinglab tushunishga atayin mashqlar berilmas edi. [2;168]

J. Jalolov o'zining "Chet tili o'qitish metodikasi" nomli darsligida tinglab tushunish bo'yicha shunday deydi: "Ma'lum bo'lishicha, gapirishni o'rganishdan ko'ra tinglab tushunishga erishish qiyinroq keladi. Ushbu sohaga oid bir-biriga yaqin ikki termini farqlash talab qilinadi: "tinglash"- quloq solish (Oz so'zla - ko'p tingla) va "eshitish"- eshitish sezgisi (quloq) yordamida tovushni qabul qilish (Qizim, senga aytaman, kelinim sen eshit). Tinglovchi tushunishga intiladi, eshituvchi tinglaganini tushunmasligi ham mumkin." Haqiqatan ham, tinglab tushunish gapirishga qaraganda nisbatan qiyinroq. Chunki, so'zlovchi gapirayotganda erkin gapiradi, undan biron narsani tushunish talab qilinmaydi.[1;219-220]

Tinglaganda esa, tushunish, matnni ma'nosini bilishi kerak bo'ladi. Ayniqsa bu chet tilida sodir bo'lsa, bu tinglovchiga yanada mas'uliyat yuklaydi. Pedagogik tajribamiz jarayonida ham bunga ko'p guvoh bo'lganmiz. Maktab o'quvchilariga savol bersak 1-2 so'zni biriktirib chet tilida jumla ayta oladi. Ammo, tinglashga kelganda audiodagi so'zlovchi haqiqiy ingliz talaffuzi bilan gapirayotgani bois ko'p qiyinchilikga uchraydi va audioni qayta qayta qo'yib berishimni so'raydi.

Tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish uchun turli xil mashqlar qo'llaniladi. Quyida ushbu ko'nikmani mustahkamlash uchun bir nechta samarali mashqlar keltirilgan:

1. O'qilgan matnni eshitish va tushunish

- Mashq: Sizga matnni o'qib berishadi va uni tinglagan holda tushunishingiz kerak. Keyin esa, eshitganingiz asosida savollarga javob berasiz.

- Namuna: Biror hikoya yoki maqolani tinglash, so'ngra asosiy g'oyalar, tafsilotlar va mavzu bo'yicha savollarga javob berish.

2. Gapni to'ldirish

- Mashq: Matn yoki gapning bir qismi o'qiladi, keyin u yerdagi bo'sh joylarni to'ldirishingiz kerak bo'ladi.

- Namuna: "Bugun ob-havo juda... (bo'sh joy). Kechqurun esa... (bo'sh joy)." Eshitib to'ldirishingiz kerak bo'ladi.

3. Buyruqlarni bajarish

- Mashq: Kimdir sizga oddiy yoki murakkab buyruqlarni beradi, siz esa ularni tinglab to'g'ri bajarishingiz kerak.

- Namuna: "Stol ustidagi qalamni olib, daftar ustiga qo'yib qo'ying."

4. Eshitgan so'zlarni ajratish

- Mashq: Sizga turli so'zlar aralash holda o'qiladi va ular orasidan ma'lum bir toifadagi so'zlarni ajratib yozib borasiz.

- Namuna: O'quvchi, muallim, kitob, shahar, daftar. Siz faqat "buyumlar" yoki "shaxslar"ni ajratib yozasiz.

5. Muzokara yoki suhbatni tinglash
- Mashq: Biror suhbat yoki muzokarani eshitasiz va asosiy nuqtalarni tushunishingiz kerak bo'ladi.

- Namuna: Biror biznes muzokarasi yoki radiodagi intervyuni tinglab, undagi asosiy mavzu va natijalar bo'yicha xulosa qilasiz.

6. Yashirin ovozni aniqlash

- Mashq: Turli tovushlar va shovqinlar orasidan ma'lum bir tovushni ajratishingiz kerak bo'ladi.

- Namuna: Musiqa, transport ovozi yoki tabiat tovushlari orasidan odamning gapirgan ovozi toping.

7. Audioni qayta hikoya qilish

- Mashq: Sizga audio hikoya yoki matn beriladi, tinglaganingizdan so'ng uni o'zingizning so'zlaringiz bilan qayta hikoya qilib berishingiz kerak.

- Namuna: O'qituvchi bizga qisqa hikoya o'qib beradi, keyin biz uni eslab qayta hikoya qilishimiz kerak.

Ushbu mashqlar yordamida tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish mumkin. Qanchalik ko'p mashq qilsaq, eshitganimizni tushunish va qayta ishlash qobiliyatimiz shunchalik yaxshilanadi.

Tinglab tushunishni rivojlantiradigan tavsiyalar:

1. Audio materiallar: Turli xil audio materiallar, masalan, podkastlar yoki audiokitoblar tinglash. Ularni turli aksentlarda yoki tezliklarda tanlash.

2. Savol-javob mashqlari: Tinglagan materialga asoslangan savollarni ishlab chiqish. Savollarga javob berish orqali tushunigimizni sinab ko'rish.

3. Transkripsiya: Tinglagan materialning qismini yozib olish. Bu bizga eshitish va yozish ko'nikmalarini birgalikda rivojlantirishga yordam beradi.

4. Ovozli kitoblar: Ovozli kitoblarni tinglash va ularni kitobning matni bilan birga o'qish orqali tushunishni mustahkamlash.

5. Intervyular va muloqotlar: Xar xil mavzularda intervyularni tinglash. Har bir intervyudan so'ng asosiy g'oyalarni yoki fikrlarni qisqacha yozib olish.

6. Mavzu bo'yicha muhokama: Tinglagan materialimiz haqida do'stlarimiz yoki oila a'zolarimiz bilan muhokama qilish. Bu bizga materialni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

7. Raqamli platformalar: Duolingo yoki Busuu kabi raqamli ta'lim platformalaridan foydalanib, tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantiruvchi mashqlarni bajarish.

Xulosa qilib aytganda, tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirishda mediateknologiyalarning roli beqiyosdir. Ushbu texnologiyalar ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish, o'quvchilarni rag'batlantirish va ularning bilimlarini kengaytirish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilar turli xil audio va video materiallar orqali tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishlari, shuningdek, o'zaro muloqot va madaniy kontekstni tushunish orqali yanada muvaffaqiyatli til o'rganadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Jalolov Jamol Jalolovich. *Chet til o'qitish metodikasi chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik.*-Toshkent: O'qituvchi, 2012. 219b.

[2]. З.А.Кочкина: 1)Понимание звучащей речи(аудирование) Обзор американских работ://Вопросы психологии 1963 №3; 168с.

[3]. Якубова М. М Хорижий тил ўқитишда тинглаб тушуниш ва гапуришга ўргатишнинг аҳамияти 2013й.

[4]. Якушева С.Д. «Основы педагогического мастерства» 3-е издание. <http://www.do271-z.narod.ru/metod.pdf>